

## **JAHON TURIZMIDA ZIYORAT TURIZMINING TUTGAN O'RNINI**

**KAMOLIDDIN JAHONGIROV,**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmikafedrasida stajor o'qituvchisi,*

*e-mail: [kamoliddin6564@gmail.com](mailto:kamoliddin6564@gmail.com)*


**Annotatsiya:** *Ushbu tezisdagi ziyorat turizmining mohiyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, ziyorat turizmining hozirgi kunda turizm industriyasida qay darajada ahamiyat kasb etishi haqida statistik tahlillar keltirilgan. Xulosada ziyorat turizmi iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida mamlakat taraqqiyotini ta'minlashdagi o'rnini haqida so'z yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Transport-kommunikatsiyasi, masjid, cherkov, turist, diniy munosabat, transport, halol turizm, jahon bozori, standart, infrastruktura, sayyoh, diniy turizm, haj, umra, logistika, turizm industriyasi, xalqaro turizm.*

Turizm sohasi COVID-19 pandemiyasidan eng ko'p zarar ko'rgan hamda eng tez tiklanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Hozirda turizm iqtisodiyotni eng tez rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu soha mamlakatda transport, oziq-ovqat, mehmonxona, savdo-sotiq, hunarmandchilik, qurilish va boshqa xizmat turlarini rivojlanishiga olib keladi. Bundan tashqari, mamlakat tashqi qiyofasini zamonaviylashtirishga, mehmonxona va restoran industriyasini rivojlantirishga hamda transport-kommunikatsiya tizimlari kabi tarmoqlar o'rtasidagi aloqalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Turizmning an'anaviy yo'nalishlardan biri bo'lgan ziyorat turizmi hozirda katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, musulmon xalqlarning tez sur'atlarda ko'payib borishi hamda ularning daromadlarining doimiy o'sib borayotganligi halol turizmning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shuning uchun islom shariatiga mos sayohat yo'nalishlarini tashkil etishga nafaqat musulmon davlatlarida balki dunyoning turizm rivojlangan qator davlatlarida ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Saudiya, Turkiya, Misr, Malayziya kabi musulmon mamlakatlarida halol turizmni ommalashtirish uchun keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, AQSh, Germaniya, Angliya, Fransiya, Ispaniya va boshqa qator davlatlarida ham halol turizm standartlariga mos turlar jadal rivojlanib bormoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2018-yilda dunyo miqyosida musulmon sayyohlar soni 140 mln.ga, ularning xarajatlari 177 mlrd. dollarga teng bo'lgan.<sup>1</sup> Musulmon sayyohlarining eng ko'p foyda oladigan mamlakatlar Yaqin Sharq mintaqasiga to'g'ri keladi (1-rasm).



**1-rasm. 2018 yilda musulmon sayohatlaridan eng ko'p daromad olgan 5 mamlakat, mlrd. doll.**

<sup>1</sup> Master Card & Crescentrating. Global Muslim Travel Index 2019  
[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz)

Musulmon turizmi sohasida eng katta ulush Osiyo mamlakatlariga tegishli. 2020-yilda ularning jami xarajatlari \$29,6 milliardni tashkil etdi. Bunda eng faol sayyohlar Indoneziya, Xitoy va Malayziya musulmonlari sanaladi. Ularning xarajatlari musulmon mamlakatlari orasida turizm sohasidagi xarajatlarning umumiy hajmining 17 foizni tashkil etgan.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha Jahon bozorida musulmon turizmining 80 foizi 19 ta mamlakatga to'g'ri keladi. Bu faqat musulmon mintaqalarinigina emas, balki qator turizm rivojlangan mamlakatlarni qamrab oladi. 2019-yilda musulmon turizmi tufayli ushbu mamlakatlarning YaIM dagi turizmning ulushi 148 mlrd. doll.ni, bu sohadagi aholining bandligi esa 4,7 mln kishini tashkil etdi.<sup>2</sup>

Shuningdek, 2030-yilga kelib musulmonlar dunyo aholisining 25% ni tashkil qilishi hamda jahonda eng tez o'sayotgan diniy jamoaga aylanishi kutilmoqda. Ba'zi musulmon mamlakatlari bozorlarida xarid qobiliyati o'sib borishi va yangi xaridorlar sonining ortishi tufayli moddiy jihatdan farovon bo'lgan o'rta sinf shakllanmoqda. Buning natijasida xalqaro turizmدا musulmon sayyohlar ulushi ortib borishiga xizmat qiladi.

Ziyorat turizmida Haj va umra musulmonlarning eng asosiy ziyoratlari hisoblanadi. Saudiya Arabistoniga bu ikki ziyoratni amalga oshirish uchun har yili ikki yuzga yaqin mamlakatdan sakkiz millionga yaqin odam tashrif buyuradi. Ushbu ziyoratlardagi chet elliklar barcha ziyoratchilarning 80% dan ko'prog'ini tashkil qiladi. Yuqori talab tufayli har bir davlat uchun kvota mavjud va shuningdek, hajga boradigan shaxslarga besh yilga moratoriy e'lon qilinadi. Saudiya Arabistoni Vision 2030 dasturi doirasida ziyoratchilar sonini o'ttiz millionga oshirishni rejalashtirmoqda<sup>3</sup>.

---

<sup>2</sup> Global Economic Impact Of Muslim Tourism And Future Growth Projection: 2017–2020. <http://www.webintravel.com/wp-content/uploads/2016/12/Salam-Standard-Global-Economic-Impact-of-Muslim-Tourism-2015.pdf>

<sup>3</sup> Haj and Umrah: Developments and Opportunities Prepared by Thomson Reuters and DinarStandard JANUARY 2017. 8 p.

Musulmonlar uchun qulay sharoitlarga ega bo'lgan turistik destinatsiyalar bo'yicha har yili Mastercard & Crescentrating "Global Muslim Travel Index (GMTI)" bo'yicha hisobotlar e'lon qilib boradi. 2019-yilgi natijalarga ko'ra to'qqizinchi marta Malayziya musulmon turistlar uchun eng yaxshi turistik yo'nalish deb topildi. Indonezya so'ngi yillarda bu indeks bo'yicha ko'rsatkichlarini yaxshilab Malayziyaga tenglashdi. Keyingi o'rinlarni Turkiya, Saudiya Arabistoni, BAA gi egalladi.<sup>4</sup>

Musulmon sayohatchilarning soni yuqori darajada o'sib borayotgan bo'lsada, lekin ayol sayohatchilarning o'rtacha ulushi oshmagan. Musulmon sayohatchilar ancha yosh bo'lib, 75% ni 25 yoshdan 44 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Ularning aksaryatini Oliy ma'lumotga ega bo'lganlar tashkil etadi.<sup>5</sup>

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki hozirda ziyorat turizmi iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda muhim o'rin tutishi mumkin. Shuning uchun, ziyorat turizmini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me'yor va standartlarni implementatsiya qilish, ziyorat turizmi obyektlariga olib boradigan infratuzilmasini rivojlantirish, qulay turizm muhitini yaratish, transport logistikasini rivojlantirish, ichki va tashqi yo'nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, mamlakatning sayohat va dam olish uchun xavfsiz sifatidagi imidjini mustahkamlash hamda turizm tarmog'i uchun kadrlar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etada.

---

<sup>4</sup> Malaysia 2019 by Islamic Tourism Centre// [http://www.sesric.org/imgs/news/2228\\_MR\\_DAUD.pdf](http://www.sesric.org/imgs/news/2228_MR_DAUD.pdf)

<sup>5</sup> Global Muslim Travel Index 2018. Mastercard-Crescentrating 2018.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Tuxliyev I.S., Hayitboev R., Ibodullaev N.E., Amriddinova R.S. "Turizm asoslari" T: 2012 yangi nashr.
2. T.M.Aliyava "Xalqaro turistik tashkilotlar" Toshkent-"TDIU"-2009 y.
3. Туризм как вид деятельности. В.А.Квартальнов, И.А.Зорин и др. Москва. «Финансы и статистика» 2001 г. 33 с.
4. European Tourism in 2018: Trends & Prospects (Q4/2018).
5. Global Muslim Travel Index 2018. Mastercard-Crescentrating 2018.
6. Global Muslim Travel Index 2019. Master Card & Crescentrating 2019.
7. Global Economic Impact Of Muslim Tourism And Future Growth Projection: 2017-2020.
8. Haj and Umrah: Developments and Opportunities Prepared by Thomson Reuters and Dinar Standard JANUARY 2017. 8 p.
9. Malaysia 2019 by Islamic Tourism Centre
10. Master Card & Crescentrating. Global Muslim Travel Index 2019
11. Megatrends underpinning tourism to 2020: Analysis of key drivers for change. P.24.
12. State of The Global Islamic Economy 2018/2019 Report, Thomson Reuters
13. Усмонова, М. (2022). Imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitishda texnologiya fanining dolzarbligi. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(4).